

ERKIN VOHIDOV SHE'RLARIDA SO'ZNING QUDRATI

Tursunmuratova Ruxshona Qamaritdin qizi

O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Usarova Laylo Ibragimovna

Ilmiy rahbar: O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek shariyatchiligiga katta hissa qo'shgan Erkin Vohidov ijodi uning she'rlarini jimjimadorligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Erkin Vohidov, she'r, badiiy turlar, lirika, bog'lanish, to'rtlik, qofiya, zamon va makon.

Erkin Vohidovning she'riyati o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. U zamon va makkoning chuqur tahlilini inson ruhiyatining nozik qatlamlarini muhabbat, erkinlik, tabiat va Vatan tuyg'ularini ulug'lash orqali o'z she'riyatini yaratgan. Erkin Vohidov she'rlarida ko'pincha inson va tabiat o'rtasidagi mushohadalarga boy bo'lib, uni o'zbek shoirlaridan biri sifatida tanitadi.

Shoirning ijodida alohida o'rin egallagan "Tong lavhasi", "Ona tuproq", "Buloq", "Sevgi" kabi she'rlarida chuqur ma'no go'zal ifodalar ajoyib ta'svirlar bilan birgalikda zamon va makoning chuqur tahlili bir o'qishdayoq o'quvchi ko'ziga tashlanadi.

"Erkin Vohidov she'riyatida adabiy mavzular xazinasiga aniq zamon va makon kaliti orqali kirib boriladi. Xalqimiz keyingi davrlar mobaynida bosib o'tgan va o'tayotgan goh mashaqqatli, goh armonli, goh tug'yonli, goh iftixorli yo'llarning manzara va ohanglari, sadolari Erkin Vohidov she'riyatida to'la mo'jassamdir"-deydi O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov (1:63)

She'rlar, she'riy to'plamlar adabiyotimizda, she'riyat lirik turga oid janrlardan biridir. Unda voqea-hodisalar bo'yoqdor va jimjimador so'zlar orqali ifodalanadi.

Shuningdek, Erkin Vohidov ko'plab ijodkorlarning asarlarini tarjima qilgan.

Jumladan: rus shoiri Sergey Yesenin she'rlari hamda nemis shoiri Gyotening "Faust" asarini o'zbek tiliga mohirona o'giran ijodkor hisoblanadi.

"Erkin Vohidov badiiy adabiyot daholari ruhini shod etgan yangi o'zbek adabiyoti darg'alari duosini olgan, o'z xalqi qalbiga chuqur kirib borgan san'atkordir. Bunday shoir hech qachon zavol ko'rmaydi"-deb ta'kidlaydi adabiyotshunos Abdug'ofur Rasulov [2:63]

Erkin Vohidov she'rlarida so'zning qudrati yaqol sezilib turadi. Shoir she'rlarida his-tuyg'u, kechinma, voqea-hodisalarni ifodalab berishi uchun, o'quvchi qalbidan joy olish uchun uzundan-uzoq so'z va gaplardan emas, balki jimjimador, bo'yoqdor

soʻzlardan foydalandi, Bu esa oʻz navbatida oʻquvchining his-tuygʻu , kechinmalarni toʻlaqonli hayolida yoritishiga zamin yaratadi.

Shuningdek shoir "Tandir haqida ertak " nomli sheʻrida Fargʻona shevasiga oid soʻzlardan foydalanadi.

Moʻjaz hovli

Pastgina devol

Pastakkina tandiri bilan

Yashar edi kichkina bir chol

Kichkina bir kampiri bilan[3:217]

Shoir sheʻrlarida qoʻllanilgan shevaga oid soʻzlar devol-devor sheʻrining haroratini oshirishga xizmat qiladi.

Erkin Vohidovning el-yurt va adabiyot oldidagi xizmatlari inobatga olinib "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni va "Oʻzbekiston Qahramoni " unvonlari bilan taqdirlangan.

Atoqli shoir Erkin Vohidov sheʻrlarini, toʻplamlarini kitoblarini yurtimizning har bir kutubxonasidan topishimiz hamda shoirng sheʻrlari oʻquvchilar qalbidan soʻnmas oʻrin egallagan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Oʻzbekiston milliy ensiklopidiyasi" ,"Davlat milliy nashryoti" -2018.

11-sinf adabiyot-63 b.

2."Sharq " nashiryoti-matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriryati Toshkent-2020-y. 217b.